

Abdullatif



Abdullatif

(1423–1450)

(1449-1450)

Movarounnahrda 1449-1450 yillarda hukmronlik temuriy hukmdor. **Ulug'bekning** o'g'li. **Shohrux** saroyida tarbiya olgan, harbiy yurishlarda qo'shinning o'ng qanotiga qo'mondonlik qilgan. **Gavharshod begim** va tarxon amirlar **Shohrux** o'limidan so'ng (1447) Abdulatifni oliy bosh qo'mondonlikka tayinlab, uning amakivachchasi **Alouddavlani** taxtga o'tqazishgan. Bu qarordan norozi bo'lgan Abdulatif **Alouddavla**ga qarshi urush ochgan, lekin Nishopur yaqinidagi jangda (1447) yengilib, hibsga olingan. **Ulug'bek** farzandi hayotini saqlab qolish maqsadida **Alouddavla** bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan. Unga ko'ra, **Alouddavla** Xuroson hukmdori deb tan olinib, Abdulatifga Balx ulusi berilgan. Abdulatif **Ulug'bekning** 1448 yil ilk bahoridan yozigacha **Alouddavla** va **Abulqosim Boburga** qarshi janglarida qatnashgan. So'ng, toj-taxtni egallash maqsadida otasiga qarshi **Abulqosim Bobur** bilan ittifoq tuzgan. **Ulug'bek** Abdulatifga qarshi qo'shin tortgan va Amudaryo bo'yida ikki tomon qo'shini 3 oy muqobil turgan (1449). Samarqandda qolgan beklar isyoni tufayli **Ulug'bek** poytaxtga qaytishga majbur bo'lgan, natijada Abdulatif Amudaryodan o'tib Termiz, Shahrizabzni egallagan. Samarqand yaqinidagi Damishq qishlog'i yonida otasini yengib, taxtni egallagan (1449). Abdulatifning roziligi bilan **Ulug'bek** va ukasi – **Abdulaziz Mirzo** qatl etilgan. Abdulatif olti oylik hukmronligidan so'ng, **Ulug'bekning** xos navkarlaridan **Bobo Husayn** bahodir tomonidan o'ldirilgan (1450 yil 8-may). Abdulatif o'jar, xudbin va shuhratparast bo'lsada, otasi **Ulug'bek** kabi ilm axliga ixlosmand edi. U o'zi ham falakiyot va tarix ilmi bilan shug'ullanar, she'rlar bitardi.

2023-10-30 00:08:16